# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№4



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 76 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.*

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников ........ 18
**Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович**

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantirish masalalari ........ 26
**To‘xtaboyev Nuriddin Isomiddin o‘g‘li**

Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review ........ 32
**Ismoilova Maftuna Mamat qizi**

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari ........ 38
**Primova Shaxlo Jumayevna**

Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash ........ 43
**Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi**

Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish ........ 52
**Qodirova Zilola Maxmud qizi**

Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatchiligining ilg‘or xorij tajribasi ........ 57
**Erkayev Nodir Xudayberdiyevich**

Samarqand viloyatida turizmni barqaror rivojlantirish zaruriyati va imkoniyatlari ........ 66
**Raxmonov Shuxrat Shavkatovich**

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo‘nalishlari ........ 71
**Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro‘zigul Akmaljon qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH HOLATI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI




**Madraximova Zulfiya Nurmatovna**
Guliston davlat universiteti
Ekologiya va geografiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi

**Ishankulova Komila Kurbanovna**
Guliston davlat universiteti
Ekologiya va geografiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi




**Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi**
Guliston davlat universiteti
Ekologiya va atrof -muhit muhofazasi
ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalari

**Omonkulova Ro‘zigul Akmaljon qizi**
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish jarayoni, uning hozirgi holati va rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash hamda iqtisodiy o‘sish bilan atrof-muhit muhofazasini uyg‘unlashtirishdan iborat. Maqolada qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza transport tizimiga o‘tish, chiqindilarni qayta ishlash, suv va yer resurslarini samarali boshqarish, shuningdek, ekologik qishloq xo‘jaligi va barqaror sanoat ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha qator muhim qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, bu borada qo‘shimcha islohotlar va xalqaro hamkorlik zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, ekologik transport, chiqindilarni qayta ishlash, resurslarni tejash, atrof-muhit muhofazasi, yashil texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the process of implementing a green economy in Uzbekistan, its current state, and development trends. The main goal of a green economy is to use resources efficiently, ensure environmental sustainability, and harmonize economic growth with environmental protection. The article discusses the use of renewable energy sources, the transition to an environmentally friendly transportation system, waste recycling, effective management of water and land resources, as well as the development of ecological agriculture and sustainable industrial production systems. According to the research findings, although significant steps have been taken towards transitioning to a green economy in Uzbekistan, additional reforms and international cooperation are necessary.

Key words: Green economy, sustainable development, renewable energy, ecological transport, waste recycling, resource conservation, environmental protection, green technologies.

Аннотация: В статье анализируется процесс внедрения зеленой экономики в Узбекистане, ее современное состояние и направления развития. Основная цель зеленой экономики – эффективное использование ресурсов, обеспечение экологической устойчивости и сочетание экономического роста с защитой окружающей среды. В статье рассматриваются вопросы использования возобновляемых источников энергии, перехода к экологически чистой транспортной системе, переработки отходов, эффективного управления водными и земельными ресурсами, а также развития экологического сельского хозяйства и устойчивых систем промышленного производства. Исследование показало, что, хотя Узбекистан добился значительных успехов в переходе к зеленой экономике, необходимы дополнительные реформы и международное сотрудничество.

Ключевые слова: Зеленая экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, экологический транспорт, переработка отходов, ресурсосбережение, охрана окружающей среды, зеленые технологии.

## KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish va ekologik muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o'sish bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyot modeli ekologik barqarorlik va innovatsion texnologiyalarga asoslangan bo'lib, uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotni joriy etish borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Mamlakatda ekologik toza texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha qator davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Xususan, 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u mamlakatning ekologik barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish jarayoni, uning hozirgi holati hamda asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish choralari ham ko'rib chiqiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni jahon miqyosida J. Rifkin (2019) va P. Victor (2020) kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, ular yashil iqtisodiyotning global iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va an'anaviy iqtisodiy modellar bilan integratsiyasini tadqiq qilganlar.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga oid "2030-yilgacha mo'ljallangan Yashil iqtisodiyot strategiyasi" (2019) va "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi" asosiy huquqiy hujjatlar sifatida e'tirof etiladi. R. O. Abdullayev va A. T. Toshmatov (2021) yashil iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga ta'siri va uni rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etib, ekologik soliq mexanizmlari va yashil texnologiyalarni joriy etish zarurligini qayd etganlar.

Qayta tiklanadigan energiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda B. X. Ismoilov va Sh. A. Ergashev (2022) quyosh va shamol energetikasining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy ishlar olib borib, O'zbekiston sharoitida qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanish potensialini tahlil qilgan.

Ekologik transport va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha D. A. Mahmudov va O. A. Usmonov (2021) elektr transport vositalari infratuzilmasini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, G. A. Saidov (2020) chiqindilarni qayta ishlashning iqtisodiy va ekologik jihatlarini tahlil qilgan.

Ekologik qishloq xo'jaligi bo'yicha A. R. Norqulov va M. T. Bozorov (2021) organik o'g'itlardan foydalanish hamda tabiiy agrotexnologiyalarni qo'llash orqali tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan.

Xalqaro darajada Xalqaro energetika agentligi (IEA) hisobotlarida O'zbekistonda yashil energetika imkoniyatlari yuksak ekani ta'kidlangan bo'lsa, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) chiqindilardan energiya ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Xalqaro qishloq xo'jaligi taraqqiyoti markazi (ICARDA) tadqiqotlari esa tomchilatib sug'orish texnologiyalarining suv resurslarini tejashdagi ahamiyatini ko'rsatib bergan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Global Yashil O'sish Instituti (GGGI) tomonidan ishlab chiqilgan ushbu indeks mamlakatlarning barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha samaradorligini baholaydi. Ushbu indeks barqaror rivojlanish maqsadlarida keltirilgan bo'lib, indeks 4 ta maqsadli yo'nalish, 16 ta kategoriya hamda 36 ta indikatorlardan iborat. U doimiy tarzda va barcha davlatlarni qamragan holda yuritiladi.

1. Barqaror iste'mol va ishlab chiqarish

Energiya samaradorligi: O'zbekistonda energiya iste'moli yuqori, lekin qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish davom etmoqda.

Suv resurslaridan foydalanish: Suv taqchilligi muammosi mavjud, samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish zarur.

Chiqindilarni qayta ishlash: Qayta ishlash tizimi rivojlanish bosqichida.

2. Tabiiy kapitalni boshqarish

Atmosfera havosining sifati: Yirik sanoat shaharlarida havo ifloslanishi muammosi mavjud.

Biodiversitetni saqlash: Himoya qilinadigan hududlar mavjud, ammo tabiiy ekotizimlarga tahdidlar saqlanib qolmoqda.

O'rmon resurslarini boshqarish: O'rmonlarni tiklash loyihalari olib borilmoqda, lekin deforestatsiya xavfi mavjud.

3. Yashil iqtisodiy imkoniyatlar

Yashil texnologiyalarni rivojlantirish: Texnologik yangilanishlar amalga oshirilmoqda, ammo yetarlicha investitsiya talab etiladi.

Atrof-muhit uchun xavfsiz investitsiyalar: Davlat va xususiy sektor hamkorliklari kuchaytirilishi lozim.

Ishlab chiqarishning ekologik standartlari: Korxonalarda ekologik me'yorlar joriy qilinmoqda, lekin ularni qat'iy bajarish masalasi dolzarb.

4. Ijtimoiy inklyuzivlik

Aholining ekologik xabardorligi: Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ta'lim va targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur.

Ekologik barqarorlik va sog'liqni saqlash: Havo va suv sifati sog'liq uchun xavflarni oshirishi mumkin.

Ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar: Ekologik loyihalarda barcha qatlamlarni qamrab olish muhim.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Yashil" o'sish indeksiga ko'ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori "yashil" o'sish ko'rsatkichlariga ega.

"Yashil o'sish" indeksi bo'yicha Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya yetakchi davlatlar qatoridan o'rin olib, ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va yashil iqtisodiyot imkoniyatlarini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishgan. Ushbu davlatlarning reytingi ularning ekologik siyosati, qayta tiklanadigan energiya ulushi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ko'rgan choralari va iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan harakatlari bilan bog'liq.

Shvetsiya eng yuqori ko'rsatkichni qayd etib, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy qamrov bo'yicha yetakchilik qiladi. Daniya esa yashil texnologiyalar va ekologik barqarorlikni rivojlantirish borasida uzoq yillik tajribaga ega bo'lib, iqtisodiyotini uglerod chiqindilarini kamaytirishga yo'naltirgan. Chexiya ham yashil o'sish strategiyasini faol qo'llab-quvvatlab, ekologik innovatsiyalar va chiqindilarni boshqarish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishgan. Germaniya esa sanoat jihatdan rivojlangan bo'lishiga qaramay, yashil energiyaga o'tish va ekologik standartlarni oshirish borasida yetakchi pozitsiyada turadi.

Umuman olganda, ushbu davlatlar ekologik barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni muvozanatlashtirish va yashil iqtisodiyot imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha izchil siyosat yuritmoqda. (1-jadval)

1-jadval. "Yashil o'sish"indeksida top 5-lik davlatlar (Yevropa hududi bo'yicha)[1].

| Davlat | Umumiy indeks bali | Resurslardan samarali foydalanish | Tabiiy kapitalni himoya qilish | Yashil iqtisodiy imkoniyatlar | Ijtimoiy inklyuzivlik |
|---|---|---|---|---|---|
| Shvetsiya | 78.72 | 87.78 | 78.14 | 59.53 | 94.06 |
| Daniya | 76.77 | 85.34 | 75.89 | 62.41 | 91.22 |
| Chexiya | 74.20 | 82.15 | 70.43 | 58.27 | 88.30 |
| Germaniya | 73.85 | 80.78 | 72.11 | 60.95 | 89.45 |

Osiyo hududi bo'yicha Yaponiya eng yaxshi "Yashil o'sish" ko'rsatkichiga ega davlat hisoblanib, umumiy 61.83 ko'rsatkichni qayd etadi. Xitoy aholi soni ko'pligi hamda havoning ifloslanish darajasiga ko'ra yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay, Xitoy Osiyo mintaqasida "Yashil o'sish" darajasi bo'yicha 3-o'rinni egalladi. Xitoyning umumiy ko'rsatkichi 58.33 ni tashkil etadi. Jadvalda keltirilgan davlatlar o'rtasida resurslardan samarali va barqaror foydalanish bo'yicha Filippin yetakchilikni qayd etib, uning umumiy ko'rsatkichi 63.68 ni tashkil etadi. (2-jadval).

2-jadval. "Yashil o'sish"indeksida top 5-lik davlatlar (Osiyo hududi bo'yicha)[2].

| Davlat | Umumiy Yashil O'sish Indeksi | Ijtimoiy qamrov | Resurslardan samarali foydalanish | Havoning ifloslanish darajasi |
|---|---|---|---|---|
| Yaponiya | 61.83 | Yuqori | O'rtacha | Past |
| Xitoy | 58.33 | O'rtacha | O'rtacha | Yuqori |
| Filippin | 63.68 | O'rtacha | Yuqori | Past |
| O'zbekiston | 25.83 | 33 | | Past |

O'zbekiston ushbu reytingda 2005-yilda 19.87 ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2019-yilda 25.83 darajani qayd etdi. O'zbekiston resurslardan samarali foydalanish va "yashil" iqtisodiy imkoniyatlar ko'rsatkichlari bo'yicha past natijani qayd etgan. Ijtimoiy qamrov holati bo'yicha O'zbekiston 64.26 ko'rsatkichni qayd etib, aholiga birlamchi xizmatlarni ko'rsatish, gender tengligi, ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya tizimida yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda. Mamlakatning yashil iqtisodiyotni joriy etish holatini baholashda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi (XVF), UNEP, Global yashil instituti, Dual Citizen xalqaro agentligi kabi xalqaro va xususiy tashkilotlarning indikatorlarini tahlil qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega[3].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish so'nggi yillarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot ekologik barqarorlikni, energiya samaradorligini, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Bu modelni amalga oshirish nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratishga ham imkoniyat yaratadi.

1 https://greengrowthindex.gggi.org/wp-content/uploads/2021/01/2020-Green-Growth-Index.pdf
2 https://greengrowthindex.gggi.org/wp-content/uploads/2021/01/2020-Green-Growth-Index.pdf
3 J.A. Turg'unov. (2023). MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH HOLATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 85–87. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.841

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqish 2017-yildan keyin kuchaygan bo‘lib, mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yangi energiya manbalarini ishlab chiqish, qayta tiklanuvchi energiya resurslarini qo‘llash, tabiiy resurslarni samarali boshqarish va chiqindilarni qayta ishlash kabi masalalar ustida ishlash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari. // Ilmiy elektron jurnali. XXI asr: fan va ta’lim masalalari”, No2, 2017.
2. Beder, S. 2011. Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary understanding, influence and effectiveness. Environmental Conservation, 38(2), pp. 140–150.
3. Pearce, D., Markandya, A., Barbier, E. B. Blueprint for a Green Economy. Earthscan, London, Great Britain, 1989, 192 p.
4. Satbyul, K. E., Ho, K., Yeora, C. 2014. A new approach to measuring green growth: Application to the OECD and Korea. Futures, 63, pp. 37–48. https://doi.org/10.1016/j.futures.2014.08.002
5. Caprotti, F., Bailey, I. 2014. Making sense of the green economy. Geografiska Annaler: Series B, Human Geography, 96(3), pp. 195–200. https://doi.org/10.1111/geob.12045
6. Lane, R. 2010. The crisis from the point of view of evolutionary economics. International Journal of Social Economics, 37(6), pp. 466–471. https://doi.org/10.1108/03068291011042337
7. Steiner, A., Iris, R., Bessa, S. Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности. ЮНЕП/Грид-Арендаль, 2011, 17 s.
8. World Bank. 2012. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. Washington D.C.: The World Bank.
9. Turg‘unov, J. A. 2023. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo‘nalishlari. Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, 9(9), pp. 85–87. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.841.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 4**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz